

O‘zbekiston
Metama’lumot
Turizm faoliyatini amalga oshirgan tashkilotlar

Ishlab chiqilgan sana: 05.10.2023

Oxirgi yangilangan sana: 05.10.2023

0. Asoslar

0.1 Qonuniy asoslar

0.1.1 Statistik ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

2021-yil 11-avgustda Sharqiy Yevropa, Kavkaz va Markaziy Osiyo uchun Rasmiy statistika to‘g‘risidagi namunaviy qonunni asosida ishlab chiqilgan “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi.

Ushbu Qonunning maqsadi rasmiy statistika sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning amal qilishi rasmiy statistikani tayyorlovchilarga va undan foydalanuvchilarga, respondentlarga hamda ma’muriy ma’lumotlarni yetkazib beruvchilarga, shuningdek ular o‘rtasida yuzaga keladigan, rasmiy statistikani tayyorlash, tarqatish va muvofiqlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan munosabatlarga nisbatan tatbiq etiladi.

Rasmiy statistika to‘g‘risidagi Qonunning 14-moddasiga muvofiq davlat statistika organlari quyidagi huquqlarga ega:

- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish va statistika kuzatuv ma’lumotlaridan statistika maqsadlarida foydalanish;
- statistik birliklar faoliyatining statistika kuzatuvlarini o‘tkazish va olingan birlamchi ma’lumotlardan statistika maqsadlarida foydalanish;
- jismoniy shaxs bo‘lgan respondentlarni statistika kuzatuvlarida ishtirok etganligi uchun rag‘batlantirishni amalga oshirish;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, shuningdek boshqa tashkilotlardan statistika dasturlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan axborotni so‘rash hamda olish;
- rasmiy statistikani tayyorlash uchun zarur bo‘lgan statistika ma’lumotlarini yig‘ishga jismoniy va yuridik shaxslarni qonunchilikka muvofiq shartnoma asosida jalb etish;
- statistika ma’lumotlarini yig‘ish, ularga ishlov berish, ularni umumlashtirish, tahlil qilish, tarqatish va saqlashning zamonaviy usullari va vositalaridan foydalanish hamda ularni milliy statistika tizimiga joriy etish;
- statistika ma’lumotlarini taqdim etish bilan bog‘liq qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish haqida ko‘rsatmalar berish va statistika ma’lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;
- statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan ma’muriy jazo choralari qonunga muvofiq o‘z vakolatlari doirasida qo‘llash.

2017-yil 12-sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining F-5054-son farmoyishiga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma’lumotlar Xalqaro Valyuta Fondining kengaytirilgan umumiy ma’lumotlar tarqatish tizimi (k-MTUT)ga to‘g‘ri kelishi va uning doirasida muvofiqlashtirilishi kerak.

0.1.2 Ma’lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o‘rtasida ma’lumotlar almashinuvi va muvofiqlashtirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 11-moddasiga asosan rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma’lumotlarini ishlab chiqishda xalqaro darajada tavsifa etiladigan tushunchalarga, tasniflarga va uslubiyatga amal qiladi.

Vakolatli davlat organi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining faoliyatini statistika dasturlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar statistika ma’lumotlarini tayyorlash uslubiyatini o‘z vakolatlari doirasida muvofiqlashtiradi.

Rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilarining statistika uslubiyatlarida xalqaro tavsiyalarga nomuvofiqlik aniqlangan taqdirda vakolatli davlat organi statistika uslubiyatlari auditi yakunlariga ko‘ra ushbu tayyorlovchilarga ijro etilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritish huquqiga ega.

Milliy statistika tizimiga kiruvchi rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan statistika ma’lumotlarini shakllantirish va vakolatli davlat organi bilan axborot almashinuvini ta’minlash uchun mas’ul bo‘lgan bo‘linmalar tashkil etiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar hamda ma’muriy ma’lumotlarni yetkazib beruvchilar o‘zlarida mavjud bo‘lgan statistika ma’lumotlarini va (yoki) ma’muriy ma’lumotlarni vakolatli davlat organiga statistika dasturlarida belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etadi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasiga asosan, Statistika kengashi vakolatli davlat organi huzuridagi rasmiy statistikaning rivojlantirilishi, faoliyat ko‘rsatishi va muvofiqlashtirilishi masalalari bo‘yicha kollegial maslahat organidir.

Statistika kengashining tarkibi davlat boshqaruvi organlarining, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining vakillari, shuningdek statistika bo‘yicha milliy ekspertlar orasidan tuziladi.

0.1.3 Respondentlar individual ma’lumotlarining maxfiyligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 27-moddasiga asosan, rasmiy statistikani tayyorlovchilar tasarrufidagi mavjud individual ma’lumotlardan faqat statistika maqsadlarida, jamlanma statistika ma’lumotlarini shakllantirish uchun foydalaniladi.

Davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar, shu jumladan xalqaro tashkilotlar tomonidan individual ma’lumotlardan tergov, nazorat qilish, sud muhokamasi, ma’muriy qarorlar qabul qilish maqsadida yoki jismoniy va yuridik shaxslarga yoki uy xo‘jaliklariga taalluqli boshqa maqsadlarda foydalanilishi mumkin emas.

Statistika agentligi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsiplariga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday individual ma'lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Statistika agentligining har bir xodimi ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o'z ichiga olgan shartnomaga qo'l qo'yishi shart.

0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasiga asosan, davlat statistika organlari davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, banklardan hamda boshqa tashkilotlardan statistika kuzatuv shakllarini olish huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi [kodeksining](#) 215-moddasiga muvofiq mansabdor shaxslarning statistika kuzatuvini olib borish uchun zarur bo‘lgan hisobot va boshqa ma‘lumotlarni taqdim etmaslikda ifodalangan statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzishi, hisobot ma‘lumotlarini buzib ko‘rsatishi yoki hisobotlarni taqdim etish muddatlarini buzishi bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o‘n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

“Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonunning 16-moddasiga asosan, Statistika dasturlariga binoan statistika kuzatuvlarini o‘tkazish chog‘ida respondentlar rasmiy statistikani tayyorlovchilarga ishonchli va to‘liq ma‘lumotlarni rasmiy statistikani tayyorlovchi tomonidan belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etishi shart.

0.2 Resurslar

0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnika bazasi, kompyuter vositalari va moliyalashtirish

Turizm faoliyatini amalga oshirgan tashkilotlar bo‘yicha ma‘lumotlarni shakllantirish bilan Markaziy apparatda 4 nafar xodim shug‘ullanadi. Turizm faoliyatini amalga oshirgan tashkilotlar to‘g‘risidagi statistika ma‘lumotlarini shakllantirish bo‘yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirishda xodimlar soni yetarli darajada. Barcha hodimlar oliy ma‘lumotga ega bo‘lib, har 2 yilda kamida 1 marta Statistika agentligining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti o‘quv kurslarida o‘z malakalarini oshiradilar. Har bir ish o‘rni lokal tarmoqqa ulangan shaxsiy kompyuterlar bilan ta‘minlangan. Dasturiy ta‘minotlar bevosita Statistika agentligining o‘zida ishlab chiqilgan bo‘lib, zarurat tug‘ilganda kelgusida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan topshiriqlarni bajarishda dasturiy ta‘minotni yangilash va unga qo‘shimchalar kiritish imkoni beradi. Statistika dasturida belgilangan turistik faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar statistikasiga oid vazifalarni amalga oshirishda ajratilayotgan moddiy resurslar yetarli darajada. Elektron hisoblash resurslarni himoyalash yetarli darajada ta‘minlangan.

1. Begʻarazlik

1.1 Kasbiy mahorat

1.1.1 Statistikaning xolisligi

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika toʻgʻrisida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan, rasmiy statistikasining asosiy prinsiplari, jumladan begʻarazlik va xolislik hisoblanadi.

“Rasmiy statistika toʻgʻrisida”gi Qonunining 13-moddasiga asosan, Davlat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari davlat statistika organlarining ushbu Qonunga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Hududiy statistika boshqarmalari, tumanlarning (shaharlarning) statistika boʻlimlari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil boʻlib, bevosita vakolatli davlat organiga boʻysunadi.

Mazkur statistik maʼlumotni ishlab chiqishda boshqa davlat organlarining aralashishiga yoʻl qoʻyilmagan va kasbiy mustaqillik toʻliq taʼminlangan.

Kadrlarni tanlab olish va ularni yuqori lavozimlarga tayinlashda, ularning statistika sohasida tajribasi va kasbiy malakasi eʼtiborga olinadi. Boshqarma xodimlari malakasini oshirish Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tomonidan tashkil etiladigan oʻquv kurslarida hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan tashkil etiladigan oʻquv kurslari, oʻquv-amaliy seminarlarda ishtirokini taʼminlash orqali taʼminlanadi. Boshqarma xodimlari Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutida tashkil etilgan oʻquv kurslarida maʼruzalar bilan ishtirok etadi. Ommaviy axborot vositalarida Boshqarma xodimlarining ilmiy maqolalarini eʼlon qilib borish tashkil etilgan.

1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika toʻgʻrisida”gi Qonunning 33-moddasiga muvofiq:

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini doimiy asosda baholab boradi. Sifat kafolatini taʼminlash uchun rasmiy statistika rasmiy statistikaning qamrovi, tushunchalari, statistik birliklari va tasniflariga taalluqli umumiy prinsiplar hamda usullar asosida tayyorlanadi va tarqatiladi.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar rasmiy statistikaning sifatini yaxshilash maqsadida maʼlumotlarni tahlil etish va tahrir qilish, turli manbalardan olingan maʼlumotlarni birlashtirish, maʼlumotlarni statistika maqsadlarida bir-biriga bogʻlashni va solishtirishni amalga oshirish hamda baholashning statistik usullaridan foydalanish huquqiga ega.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar tayyorlash jarayonida foydalaniladigan manbalar va usullarni, shuningdek yakuniy maʼlumotlar toʻplamlarini hujjatlashtirib boradi. Rasmiy statistikadan foydalanuvchilar statistika maʼlumotlarining manbalari va ularni tayyorlash usullari hamda rasmiy statistika maʼlumotlarining sifati toʻgʻrisida metamaʼlumotlar yordamida xabardor qilinadi.

1.1.3 Statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish yoki undan noto'g'ri foydalanish bo'yicha sharh

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Statistika agentligi statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish va statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanilganda o'z izohini berishi mumkin.

1.2 Shaffoflik

1.2.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish qoidalari va tartibining oshkoraligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 6-moddasiga binoan, rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari tushunarlilik va shaffoflik. Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish bo'yicha shartlar O'zbekiston Respublikasining statistikaga oid qonun hujjatlarida keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. “Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonun va statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish va tarqatish muddatlari aniq ko'rsatilgan statistika dasturi Statistika agentligi rasmiy veb-saytiga (<https://stat.uz>) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida, normativ-huquqiy hujjatlar bazasi (norma), shuningdek Adliya vazirligining www.lex.uz manzilida joylashgan ma'lumotlar bazasida ham mavjud. Statistik ma'lumotlarni shakllantirish uchun respondentlar tomonidan taqdim etiladigan statistika hisoboti shakllari Statistika agentligi rasmiy veb-saytida foydalanuvchilar uchun oldindan e'lon qilinadi.

1.2.2 Hukumatning statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ko'rishning ichki imkoniyati

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Hukumat Statistika agentligi tomonidan tayyorlangan statistik ma'lumotlarni ularni e'lon qilish vaqtidan oldin ko'rish imkoniyatiga ega emas. Statistik ma'lumotlarni tarqatishda davlat statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi (“Rasmiy statistika to'g'risida”gi Qonunning 13-moddasi). Faqat Agentlik direktori, uning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlar statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ularni ko'ra oladi.

1.2.3 Statistik ma'lumotlarning atributlari (belgilari)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Jamoatchilikka e'lon qilinayotgan bosma statistik nashrlar, axborotnomalar, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan ma'lumotlarning Statistika agentligi tomonidan ishlab chiqilganligi uning logotipi va izohlari orqali aniq belgilanadi.

1.2.4 Uslubiyatlar, ma'lumotlar manbasi va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida oldindan xabardor qilish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga sezilarli o'zgartirishlar kiritishdan oldin Statistika agentligi jamoatchilikni oldindan xabardor qiladi. Statistika agentligi o'z rasmiy veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko'rsatmalarni joylashtiradi. Maqolalar, yangiliklar va matbuot anjumanlarida kutilayotgan o'zgarishlar jamoatchilikka yetkaziladi.

1.3. Axloq me'yorlari

1.3.1 Xodimlarning axloq me'yorlari bo'yicha ko'rsatmalar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Statistika agentligi xodimlari uchun Odob-axloq qoidalari tasdiqlangan. Ular axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik prinsipiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimga tayinlanayotganda ushbu majburiyatlar haqida tushuntirishlar beriladi. Statistika agentligi xodimi individual ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

2. Uslubiyat

2.1 Konsepsiya va tushunchalar

2.1.1 Konsepsiya va tushunchalar

Turoperator – bu litsenziya asosida iste'molchilarning ommaviy va individual talabiga mo'ljallangan turistik marshrutlarni ishlab chiqish va targ'ib qilish, shuningdek uni turistik agentlar va turistlarga sotish bilan shug'ullanadigan tadbirkorlik subyekti.

Turistik agentlik (Turagent) – turoperator tomonidan tashkil etilgan turlarni sotadigan tashkilot yoki yakka tartibdagi tadbirkor. Turagent turoperator turlarni sotib oladi va xaridorga turistik marshrutni amalga oshiradi yoki turoperator tomonidan taqdim etilgan komissiya evaziga turist va turoperator o'rtasida vositachi vazifasini bajaradi.

Turizm faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning statistikasi bo'yicha uslubiy qoidalar turizm statistikasi xalqaro tavsiyalariga asoslanadi, 2008- yil (IRTS 2008).

2.2 Statistik qamrov

2.2.1 Statistik qamrov

2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi

Ma'lumotlarning geografik qamroviga Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahri kiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan barcha turoperatorlar va turagentlar ro'yxatga olinishi kerak. Shuningdek,

qamrovda O'zbekiston Respublikasi turizm qo'mitasi sanatoriyasi reyestri ma'lumotlaridan foydalaniladi.

2.2.1.2 Statistik qamrovdan istisnolar

Istisnolar mavjud emas.

2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

Aniqlanmagan faoliyat mavjud emas.

2.3 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

2.3.1 Tasniflash/sectorlar bo'yicha taqsimlash

Yo'q.

2.4 Hisobga olish asoslari

2.4.1 Baholash

O'lchov birliklari-birlik, kishi, ming so'm.

2.4.2 Hisobga olish asosi

Turizm statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalarga asoslanadi, 2008- yil (IRTS 2008).

2.4.3 Yalpi/sof ko'rsatkichlarni hisoblash tartib-taomillari

Yo'q.

3. Aniqlilik va ishonchlik

3.1 Birlamchi ma'lumotlar

3.1.1 Birlamchi ma'lumotlarni yig'ish asoslari

Ma'lumotlarni yig'ish korxonalar katalogini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Asosiy ma'lumot manbai turoperatorlar va turagentlar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlardir. Korxonalar hududiy statistika organlari orqali qamrab olinadi. Turoperatorlar va turagentlar har yili yillik statistik hisobotlar 1 turizm shakli "Tashrif buyuruvchilarni joylashtirish va ularga xizmat ko'rsatish to'g'risida hisobot", 1 kb (tur) (1 kb shaklga ilova) "Mikrofimlar va kichik korxonalarining tashrif buyuruvchilarni joylashtirish va ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha hisoboti"ni Estat 4 elektron ilovasi orqali taqdim etadilar. Ma'lumotlar Statistika agentligida shakllantiriladi va umumlashtiriladi.

3.1.2 Birlamchi ma'lumotlarning ta'rifi, qamrovi, tasniflari, baholanishi va hisobga olish davri

Statistik hisobotlarning davriyligi turoperatorlar va turagentlar to'g'risidagi ma'lumotlarni nashr etishning yillik davriyligiga mos kelishi uchun yetarlidir. Hududiy qamrov odatda talablarga javob beradi. Manba ma'lumotlari ro'yxatga olish vaqti va asosiy davrlarga mos keladi.

3.1.3 Birlamchi ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi

Respondentlarga 1 turizm shakli "Tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish va joylashtirish to'g'risida", 1 kb (tur) (1 kb shaklga ilova) "Tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatish va joylashtirish to'g'risida mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti" yillik statistik hisoboti o'z vaqtida va belgilangan tartibda taqdim etilishi to'g'risida xabardor qilinadi. Ushbu hisobot belgilangan vaqt oralig'ida to'liq yig'iladi. Statistika agentligi yillik statistika dasturiga muvofiq yiliga bir marta byulleten va jadvallar ko'rinishida ma'lumotlarni tayyorlaydi.

3.2 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

3.2.1 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

Turoperatorlar va turagentlar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarga baholanadi, tafovut mavjud bo'lsa, sabablari aniqlanib, kelgusida shu kabi holatlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida ushbu holatlar yuzasidan respondentlar bilan tushuntirish ishlari tashkil etiladi.

3.3 Statistik usullar

3.3.1 Birlamchi ma'lumotlar bilan ishlashda statistik usullar

Ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, tahlil qilish, xatolarni aniqlash, respondentlar tomonidan xatolarni tuzatish.

3.3.2 Boshqa statistik jarayonlar

Mavjud emas.

3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash

3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash

Turoperatorlar va turagentlar faoliyati to'g'risidagi yillik ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi turizm qo'mitasi ma'lumotlari bilan solishtiriladi.

3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash

Mavjud emas.

3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi tafovutlar va boshqa nomuvofiqliklarni o'rganish

Mavjud emas.

3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish

Mavjud emas.

4. Amaliy yaroqlilik

4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi

4.1.1 Davriylik

Yillik ma'lumotlar.

4.1.2 O'z vaqtidaligi

Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqarish va ushbu ko'rsatkich bo'yicha yillik ma'lumotlarni har yili tarqatish ma'lumotlarni e'lon qilish taqvimiga muvofiq yillik statistik dastur asosida amalga oshiriladi.

4.2 Qiyosiylik

4.2.1 Ichki qiyosiylik

Mavjud emas.

4.2.2 Vaqt bo'yicha qiyosiylik

2005- yildan boshlab dinamik ma'lumotlar Statistika agentligining veb-saytida (<http://stat.uz/>) keltirilgan.

4.2.3 Sektorlar va sohalar o'rtasidagi qiyosiylik

O'zbekiston Respublikasi turizm qo'mitasi ma'lumotlari bilan solishtirish.

4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish jadvali

Mavjud emas.

4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni aynan shu toifasi bo'yicha belgilash

Mavjud emas.

4.3.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish bo'yicha olingan natijalarni tarqatish

Yakuniy ma'lumotlar Statistika agentligining to'plamlarida e'lon qilinadi

5. Qulayligi

5.1 Ma'lumotlar

5.1.1 Statistik ma'lumotlarni taqdim etish

Ma'lumotlar Statistika agentligining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan <http://stat.uz/>.

5.1.2 Ma'lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari

5.1.2.1 Bosma shaklda – Yangi nashr

Ma'lumotlar foydalanuvchilarga statistika agentligining quyidagi nashrlari orqali bosma shaklda tarqatiladi: “O'zbekiston raqamlarda”; “O'zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi”; “O'zbekistonda turizm”.

5.1.2.2 Bosma shaklda – Oylik byulletenlar

Chop etilmaydi.

5.1.2.3 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar

Chop etilmaydi.

5.1.2.4 Bosma shaklda – Yillik byulletenlar

“O'zbekiston Respublikasida turizm va dam olish rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari” yillik byulleteni.

5.1.2.5 Bosma shaklda – Boshqalar

Foydalanuvchilarning maxsus so'rovlari bo'yicha jadvallar.

5.1.2.6 Elektron shaklda - Byulleten yoki nashrlar

Turagentlar va turoperatorlar to'g'risidagi ma'lumotlar Statistika agentligining rasmiy veb-saytining “Ochiq ma'lumotlar” bo'limida joylashgan (<https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/social-protection> va <https://stat.uz/ru/press-relizy/17506-press-reliz-2022>).

5.1.3. Ma'lumotlarni e'lon qilish jadvali

Rasmiy veb-saytida (<http://stat.uz/>) e'lon qilingan - Rasmiy statistika taqvimi.

5.1.4 Bir vaqtning o'zida e'lon qilish

Shu bilan birga, turagentlar va turoperatorlar to'g'risidagi ma'lumotlar Statistika agentligining rasmiy veb-saytining "Ochiq ma'lumotlar" bo'limida va nashrlarda (<https://stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/social-protection> va <https://stat.uz/ru/press-relizy/17506-press-reliz-2022>), shuningdek, "O'zbekiston raqamlarda" to'plamlarida; "O'zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi"; "O'zbekistonda turizm"da mavjud.

5.1.5 So'rov bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi qonuni va boshqa me'yoriy xujjatlarga muvofiq foydalanuvchilar so'roviga asosan statistik ma'lumotlar o'rnatilgan tartib asosida taqdim etiladi. Statistik ma'lumotlarni tarqatish yuridik va jismoniy shaxslarning yozma murojaatlariga, shuningdek, tomonlarning ikki tomonlama kelishuviga asosan statistik to'plamlar, byulletenlar, tezkor ma'lumotlar bosma nashr yoki elektron shaklda ham amalga oshiriladi.

5.2 Metama'lumotlar

5.2.1 Konsepsiyalar, statistik qamrov, tasniflar, hisobga olish asoslari, ma'lumotlar manbasi va statistik usullar to'g'risidagi hujjatlar va ma'lumotlarni tarqatish

Turizm statistikasi bo'yicha uslubiy nizom (Davlat statistika qo'mitasining 2020- yil 03-dekabrda 47-son qarori) veb-saytiga joylashtirilgan.

5.3. Foydalanuvchilarga yordam ko'rsatish

5.3.1 Aloqa bog'lash bo'yicha ma'lumotlarni tarqatish

11-51 ishonch telefoni, (71) 203-80-00 Call Centre.

9. Rejalar

9.1 Oxirgi

9.1.1 Takomillashtirish rejasi – Oxirgi takomillashtirishlar

Mavjud emas.

9.2 Umumiy

9.2.1 Takomillashtirish rejasi – Qisqa muddatli

Mavjud emas.

9.2.2 Takomillashtirish rejasi – O'rta muddatli

Mavjud emas.

9.3 Moliyaviy

9.3.1 Takomillashtirish rejasi – texnik/moliyaviy ko‘makka talab – Qisqa muddatli

Mavjud emas.

9.3.2 Takomillashtirish rejasi - texnik/moliyaviy ko‘makka talab – O‘rta muddatli

Mavjud emas.

Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

F.I.O.:	Begmatov Sardor Maxamadjonovich
Lavozim:	Bo'lim boshlig'i
Bo'linma:	Notijorat tashkilotlar faoliyati, madaniyat va turizm sohalar ida statistik kuzatuvlar bo'limi
Idora:	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi
Manzil:	Mustaqillik shoh ko'chasi, 63-uy
Shahar/region:	Toshkent shahri
Mamlakat:	O'zbekiston Respublikasi
Pochta indeksi:	100170
Telefon: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	(+99871) 202-81-30
Faks: mamlakat kodi/shahar kodi/raqam	
Elektron manzil:	sdg@stat.uz